

| | | |
|---|---|---|
| 13.00.00 | 13.00.06 | 01.00.00 |
| 13.00.01 | 13.00.07 | 02.00.00 |
| 13.00.02 | 13.00.08 | 03.00.00 |
| 13.00.03 | 13.00.09 | 09.00.00 |
| 13.00.04 | 07.00.00 | 10.00.00 |
| 13.00.05 | 19.00.00 | 11.00.00 |

№4/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 120 sahifa,
15-aprel, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich
Tarix fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**
Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich
Doctor of Historical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

XXI asr tibbiyot atamashunosligi va unga ta’rif....12
Achilov Muzaffar Norquliyevich

“4K” modeliga asoslangan ta’limda interaktiv metodlar va texnologiyalardan foydalanish usullari....15
Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi

Oliy ta’lim muassasalari kafedrasi faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik risklarni boshqarish mexanizmi....18
Djalalov Baxromjan Begmurzayevich

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning pedagogik aspektlari....24
Djumayeva Dildora Isroilovna

Urma zarbli cholg‘ular turlari va ularda ijro etish usullari....27
Egamkulov Oybek Altmishevich

Umuminsoniy va diniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirishda dialektikaning roli....31
Ergasheva Guzal Maxkambayevna

Bo‘lg‘usi tarbiyachilarda ijtimoiy intellektni shakllantirish zamon talabi....34
Ermatova Gulnoz Pirimovna

Boshlang‘ich ta’lim tarbiya fanida o‘yin texnologilardan foydalanish metodikasi....37
Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining yo‘nalishlari va usullari....41
Kulboyeva Dilnoza Abdug‘ofurovna

Kurash sport turiga qiziquvchi ayollarning motivatsiya va o‘z-o‘zini anglash darajasi....44
Mamaraimova Ra’no Usmanovna

The Teaching of Oral Production in the FFL Classroom: Linguistic and Psychological Difficulties....48
Narzulloyeva Dilfuza Bahriddin qizi

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini teatrlashtirilgan faoliyat asosida rivojlantirish....54
Nurmatova Iroda Toxtasinovna

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda pedagogik amaliyotning o‘rni....56
Shamiyeva Manzura Fayzullayevna

Globallashuv jarayonida o‘quvchilarning aksiologik kompetensiyalarini shakllantirish....59
Siddikov Baxtiyor Saidkulovich

4-sinf o‘quvchilariga maqollar ma’nosini tushuntirish usullari....63
Suvonova Shohida Murodullo qizi

Kasbiy rivojlanish soatlarining pedagogik va psixologik asoslari....69
Temirova Rushana Ravshan qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni shakllantirish mazmuni....73
Teshabayeva Zamira Sobirovna, Abdulatipova Mehribon Qahramon qizi

Boshlang‘ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM yondashuvi va xalqaro baholash dasturlari....76
Usmonova Zulfiya Ilxomovna

Bo‘lajak o‘qituvchilarda konfliktologik kompetentlikning shaxs sifatlariga aloqadorligi....79
Muxammadiyeva Xadicha Karomatovna

Русская документальная проза как отражение прошлого и настоящего общества....82
Дустова Ирода Шукрулло кизи

Размышления о возникновении человеческих эмоций....86
Умарова Навбахор Шокировна, Зарипова Нигинабону Фахритдиновна

Проблемы регулирования терминов в языкознании....89
Курбанова Гузаль Абдурахимовна

Педагогические основы формирования интереса дошкольников
к изучению иностранного языка в игровой среде....93
Курбанова Назира Низомиддиновна

Mexanika fanining rivojlanish tarixi....97
Esanov Nuriddin Qurbonovich

Эффективность использования личностно-ориентированной
технологии обучения в учебном процессе....100
Намозова Манзура Муродовна

O'spirinlik davridagi depressiv holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish usullari....104
Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich

Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish metodikasi....109
Radjabova Gulnoza Bahromovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining madaniy xilma-xillikni
inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish usullari....113
Saffarova Mohidil Axmadovna

Adabiy til va shevalar o'rtasidagi leksik tafovutlar: kelib chiqish sabablari va rivojlanish xususiyatlari....116
Qurbonova Asal O'tkirovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

МАКТАБГАЧА PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY-HISSIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Teshabayeva Zamira Sobirovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” kafedrasi dotsenti,
p.f.f.d (PhD)

**ORCID: 0009-0007-6227-5834**

Abdulatipova Mehribon Qahramon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada jamiyatda bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvi jarayonlari va unga munosabati masalalari haqida ma’lumot beriladi. Ijtimoiylashuvning yo‘nalishlari hamda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan ta’sir usullari haqidagi fikrlar bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy hayot, jamiyat, shaxs, maktabgacha bolalik, yo‘nalish, tarbiya, rivojlanish, faollik, munosabat.

**Abstract:** The article provides information about the processes of adaptation of children to social life in society and the issues of their attitude to it. Opinions on the directions of socialization and methods of influence aimed at the development of social activity are described.

**Key words:** social life, society, personality, preschool childhood, orientation, upbringing, development, activity, attitude.

**Аннотация:** В статье дается информация о процессах адаптации детей в обществе к социальной жизни и вопросах их отношения к ней. Излагаются направления социализации, а также представления о методах воздействия, направленных на развитие социальной активности.

**Ключевые слова:** общественная жизнь, общество, личность, дошкольное детство, ориентация, воспитание, развитие, активность, отношение.

## KIRISH

O‘sib kelayotgan avlodning tarbiyasi va ijtimoiy jarayonlarga moslashuvida bilim va unga munosabat masalasi doimiy muammo hisoblanadi. Bu muammo zamonaviy sharoitda yanada keskin ko‘rinish kasb etmoqda. So‘nggi yillar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv hamda tarbiya tushunchalarining o‘zaro munosabati keng muhokama qilinmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi bolaning jamiyat qadriyatlari, urf-odatlari va madaniyatini, shuningdek, jamiyatda qulay hayot kechirishiga yordam beradigan shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini o‘zlashtirishi orqali kechadi. Ijtimoiy moslashuv jarayonida bolalar muayyan qoidalar asosida yashashni o‘rganadilar va xatti-harakatlar normalarini hisobga oladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash bo‘yicha vazifalari, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu o‘rinda Prezidentning 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son[1] Farmoniga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda “Mahalla ziyosi” o‘quv-uslubiy markazi negizida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilganini alohida ta’kidlash mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘tmishda ajdodlarimiz insoniyatning psixologik qonuniyatlarini muayyan ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganmagan bo‘lsalar-da, allomalarning asarlari va qo‘lyozmalarida mazkur holatlarning yoritilishi hamda tahlili kuzatiladi. Sharq mutafakkirlarining jamiyat ijtimoiy munosabatlar tartibotiga oid qarashlarida inson hayotining turli tarixiy bosqichlarida ba’zi qonuniyatlar qanday kashf etilganligini bilib olamiz.

1 https://lex.uz/ru/docs/-4740345

Xalqimizning ulug‘ qomusiy olimi Abu Nasr Forobiyning jamiyat ijtimoiy munosabatlar tartibotiga oid “Fozil shahar aholisining maslagi” nomli risolasi ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-ma’naviy jabhalardagi vazifalarni izchil hal qilish haqidagi ta’limotdir. Abu Nasr Forobiy butun insonlarni o‘zaro hamkorlikka, xalqlarni tinchlikka chaqiradi, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Abu Nasr Forobiy insonlarning hamkorlikda ish olib borishini va jamoa tizimini yo‘lga qo‘ygan.

Temuriylar davridagi turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy o‘z ijodida individual tarbiyaning ijtimoiy asoslari hamda ularning inson ruhiy olamidagi obyektiv va subyektiv xususiyatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri tahlil qilishni emas, balki shaxsning ijtimoiy faoliyati, individual xislati orqali ko‘zga tashlanadigan belgilarni badiiy umumlashtirgan holda, shaxs xarakterining faoliyat jarayonida kuzatiladigan hatti-harakatlariga bog‘liq ekanligini yoritadi.

Abdulla Qodiriy bolalarning ijtimoiylashuvi haqida yozgan asarlarida axloqiy tarbiya va ilm-fanning ahamiyatini ko‘rsatib bergan. U bolalar uchun ta’limda milliy va diniy qadriyatlarni saqlashni, shu bilan birga zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishni zarur deb bilgan. Qodiriy bolalarning jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun ularning ongida milliy va axloqiy tuyg‘ularni uyg‘otish, bir vaqtning o‘zida ular uchun o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy mas’uliyat hissini rivojlantirish muhim deb hisoblagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni va uning mazmuniy xususiyatlarini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqotda sifatli (kvalitativ) va miqdoriy (kvantitativ) metodlar uyg‘unlashtirildi. Sifatli metod sifatida kuzatuv, suhbat va pedagogik tajriba asosida ma’lumotlar yig‘ildi. Miqdoriy tahlil uchun esa anketalar, diagnostik testlar va statistik tahlil vositalari qo‘llanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida 5–6 yoshli bolalar bilan ishlovchi maktabgacha ta’lim muassasalari tanlab olindi. Subyektlar sifatida esa ushbu guruhdagi bolalar, ularning tarbiyachilari hamda ota-onalari jalb etildi. Eksperimental va nazorat guruhlari shakllantirilib, ularda ijtimoiy-hissiy rivojlanishga yo‘naltirilgan maxsus dastur asosida mashg‘ulotlar olib borildi.

Tajriba ishlarining samaradorligini baholashda o‘zaro hamkorlik, empatiya, hissiy ifoda, nizolarni hal qilish ko‘nikmalari kabi mezonlar asosida kompleks baholash usuli qo‘llandi. Olingan natijalar statistik jihatdan tahlil qilinib, nazariy xulosalar bilan solishtirildi va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanib, asosan uch yo‘nalishda olib boriladi: faoliyat, muloqot va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini o‘zlashtirishi, muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashuvi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirishi sodir bo‘ladi. Bolaning barqaror rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri muloqotdir. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri va o‘smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni shakllantiradiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo‘ladi, jamiyatda o‘z o‘rnini tasavvur qilishga erishadi.

Muloqot va faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo‘llaniladi:

- go‘daklik davri – bevosita hissiy-ruhiy;
- go‘daklikdan keyingi davr – predmetli faoliyat;
- maktabgacha davr – rolli o‘yinlar;
- ilk maktab davri – o‘quv faoliyati;
- o‘smirlik davri – kasb ta’limi faoliyati;
- o‘spirinlik davri – shaxsiy muloqot faoliyati.

Anglash sohasida o‘z “Men”i obrazini shakllantirish, o‘zicha mustaqil harakat qilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, o‘zining ijtimoiy mansubligi va ijtimoiy o‘rnini anglash ro‘y beradi. Insonning rivojlanishi juda murakkab va qarama-qarshiliklardan iborat jarayondir. Bola dunyoga kelishidan tortib butun umri davomida yuqoridagi omillar bir-birini to‘ldirib, bola shaxsining rivojlanishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan ta'sir usullari:

1. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish, o'ziga bo'lgan ishonch va boshqalarga qiziqishni rag'batlantirish;
2. O'z-o'zini tartibga solish, faollikning yetarli darajada namoyon bo'lishi, tashabbuskorlik va mustaqillik, xulq-atvor shakllarini to'g'ri tanlashga o'rgatish;
3. Jamoaga jalb qilish, jamoa a'zolariga hurmatni singdirish, o'zini namoyon qilishning rivojlanishini rag'batlantirish;
4. Ijodkorlikning amaliy turlariga qiziqish va qobiliyatni uyg'otish, ijodiy aloqalarni tashkil etishga o'rgatish.

Shu bilan birga, bunday hollarda shaxs va muhitning o'zaro ta'siri ham sodir bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bolaning ijtimoiylashuvi, xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning barcha narsani egallashga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Shu bilan birga, unda ikkinchi bir, ya'ni sub'ektiv ehtiyoj xissi ham mavjud bo'lib, bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv faqat moslashuv va individuallashuv o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq-atvorning me'yor va qoidalari haqida bilim va tajribalarni o'zlashtirib boradi. Insonning ijtimoiylashuvi jarayoni ichki va tashqi omillar, vositalar hamda bir qator mexanizmlar asosida amalga oshadi. Inson hayot yo'lining har bir bosqichida ijtimoiylashuv agentlarining tarkibi turlicha bo'ladi, har bir bosqichda bola ijtimoiy-hissiy jihatdan shakllanib boradi. Shu bilan bir qatorda, bolaning ijtimoiylashuv jarayoni va ijtimoiy tajriba to'plashida muhitning o'rni muhim ahamiyatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020- yil 18- fevral, PF-5938-son. https://lex.uz/ru/docs/-4740345
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.10.2018 yildagi "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 848-son Qarori. https://lex.uz/docs/-4013413
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila (uslubiy qo'llanma). Toshkent: "Hilol-nashr", 2022- yil. 355 b.
4. Farobiy. Fozil odamlar shahri (nodir va dono fikrlar). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004- yil. 7- bet.
5. Тешабаева, З. С. (2023). Технологии формирования профессиональной мотивации у будущих воспитателей-педагогов. Қўқон университети хабарномаси, 2023, 714–717.
6. Teshabayeva, Z. S. (2021). Professional training of future preschool teachers in the field of contextual learning technologies. Academic Research in Educational Sciences, 2(2), 1360–1367.
7. Тешабаева, З. С. (2020). Бўлажак тарбиячиларда касбий мотивацияни шакллантириш мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, (3), 557–562.
8. Teshabayeva, Z. S. Differential Education as a Factor in Improving the Effectiveness of the Educational Process. Ankara International Congress on Scientific Research – XI, January 10–12, 2025 / Ankara, Türkiye (The Proceedings Book), https://www.ankarakongresi.org, 1482–1484.
9. Teshabayeva, Z. S. (2025). "Oila shaxs ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida." Ta'limda istiqbolli izlanishlar – xalqaro ilmiy-metodik jurnal, № 2/2025. ISSN: 3060-527X, 374–378.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.